



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (<https://tilvaadabiyot.uz>)

<https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 7-son







ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot. uz

## Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

## Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev  
 Nizomiddin Mahmudov  
 Nargiza Rahmonqulova  
 Yorqinjon Odilov  
 Jabbor Eshonqulov  
 Valijon Qodirov  
 Baxtiyor Daniyarov  
 Abdurahim Nosirov  
 To'liqin Saydaliyev  
 Ravshan Jomonov  
 Zulxumor Mirzayeva  
 Qozoqboy Yo'ldoshev  
 Salima Jumayeva  
 Qayum Baymirov  
 Manzar Abdulxayrov

Alijon Safarov (elektron nashr uchun)  
 Madina Nuriddinova (elektron nashr uchun)  
 Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)  
 Barno Kadirova (elektron nashr uchun)

## Axborot hamkorimiz:



## Muharrirlar:

Lutfullo Jo'rayev  
 Bibimaryam Raxmonova  
 Shuxratova Oydin  
 Nargiza Umarova

## Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
 Gulnoza VALIYEVA

## Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
 Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
 Telefon: (98) 121-74-16,  
 (71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.  
 e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
 veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz



Ilmiy-metodik elektron jurnal

## M U N D A R I J A

### TILSHUNOSLIK

<b>Akbarjon Xasanov.</b> Olamning lisoniy manzarasi va milliy mentalitet ....	3
<b>Dilnur Bozorova.</b> Zamonaviy ta'limda til o'qitishning dolzarb muammolari .....	5
<b>Dilafroz Hamdamova.</b> Linguocognitive analysis of discourse .....	
<b>Dilorom Yuldasheva.</b> Subyektning sintaktika va semantikaga munosabati masalasi .....	
<b>Elyorjon Hasanov.</b> Terminologiyaning zamonaviy tilshunoslikda o'rganilishi .....	
<b>G'olibjon Otamurodov, Sitora Isaeva.</b> Pedagoglarning kasbiy salohiyatlarini raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali ularning ehtiyoj va muammolarini (malaka oshirish misolida) aniqlash .....	13
<b>Muhammadjon Solijonov.</b> Lingvokulturologiya zamonaviy tilshunoslik yo'nalishi sifatida .....	18
<b>Muxlisa Yigitaliyeva.</b> Lingvomadaniy yondashuvning hozirgi kundagi asosiy tushuncha va muammolari .....	19
<b>Shotillo Shorakhmetov, Aytgul Djalilova.</b> Opposite meaning of words in a context .....	21

### TADQIQOT

<b>Go'zal Qurbonova.</b> Rus tili fanidan o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalari .....	23
<b>Israilova M.N, Yuldasheva D.Y.</b> Lotin tilining rivojlanish tarixi va taraqqiyoti .....	2
<b>Maftuna Rahimova.</b> Ikki tovushli so'zlarda ifodalovchi strukturasi.....	2
<b>Yulduz Jovliyeva.</b> Adabiyot darslarida ertaklarni o'qitish metodikasi Oskard Uayldning "Baxtli shahzoda" ertagi misolida .....	29
<b>Saodat Namozova.</b> Uilyam Shekspir ijodining o'zbek adabiyoti bilan qiyosiy o'rganilishi.....	30
<b>Nigora Xolmatova.</b> Erkin A'zam xotiralarida ustozlar an'anasi .....	33
<b>Nodira Adizova.</b> Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi .....	34
<b>Qahramonjon Ismoilov.</b> Jaloliddin Rumiy va tasavvuf .....	37
<b>Munira Xudoyorova.</b> Hofiz Xorazmiy qit'alari xususida .....	3
<b>Diyora Karimova.</b> Mastering military phraseology: a guide to effective teaching .....	
<b>Nigina Pulatova.</b> Texte comme objet d'étude et d'application dans le processus éducatif, considérant sa typologie et ses composante .....	43

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.*  
<https://oak.uz/pages/4802>

<b>Shokhista Rustamova.</b> Linguodidactic foundations of the formation of speech communication skills of higher secondary school pupils.....	
<b>Shirin Sadikova.</b> Zamonaviy ta'lim jarayoni va o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish masalalari .....	4
<b>Nazira Yergesheva.</b> Language integrated learning approach and ITS variations .....	4
<b>Durdona Djalilova.</b> Pirmqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanida Temuriy malikalar .....	5
<b>Sabohat Bozorova.</b> "Ot" komponentli o'zbek va turk maqollarida lingvomadaniy xususiyatlarning ifodalanishi...	
<b>Mehriniso Ergashova.</b> Boshlang'ich sinflarda fe'l so'z turkumi ustida ishlash jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyat .....	54
<b>Najieva Sojida.</b> Talabalar ijodkorlikni shakllantirishning ta'limdagi ahamiyati .....	56
<b>Osiyo Siddiqova.</b> Komediya va komiklik tushunchasi .....	5
<b>Maxsuda Berdimuratova, Dilobar Sarieva.</b> Jadid dramaturgiyasida ayollar obrazi haqida ayrim mulohazalar .....	60
<b>Eldorbek Abduvaitov.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida lingvistik tahlil turlarini o'qitish....	6
<b>Jamoliddin Nurmuhhammadov.</b> Adabiy laboratoriyada "book report", "book review" mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi .....	66
<b>Mansur Xamidov.</b> Janubiy Surxondaryo o'zbek shevalarida paremiologik birliklarning lisoniy tabiati .....	
<b>Dilsuz Olimova.</b> Atrof - muhitning ifloslanishi va ekologik muammolar tadqiqi .....	7
<b>Shahnoza Yuldasheva.</b> The role of non-verbal communication in "EFL" (English as a foreign language) classes	
<b>Эльнора Багавова.</b> Основные понятия и особенности моделирования процесса перевода .....	
<b>Hayotgul Eshmuradova, Osmanov Mustafo.</b> Linguistic foundation of the study of human language .....	7
<b>Gulnoza Ochilova.</b> Gender madaniyatni rivojlantirishga doir pedagogik qarashlarni takomillashtirishning ahamiyati .....	8
<b>Mehrixon Raxmonova.</b> Innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy potentsialini Rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari .....	83

### **KICHIK TADQIQOT**

<b>Saodat Kambarova.</b> Yozuvchi ijodini shaxsiyatiga bog'lab o'rganish darslarini tashkil etish .....	
<b>Zulfiya Masodiqova.</b> Oliy ta'lim muassasalari nofilologik yo'nalishlarida nemis tili o'qitishda innovatsion metodlarning ahamiyati .....	8
<b>B.X. Daniyarov.</b> Gumanitar fanlarni o'qitishda "Aqli" telefonlardan samarali foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati .....	89
<b>Muqaddas Normatova.</b> The importance of games in teaching English .....	
<b>Nasiba Ochilova, Shoira Temirova.</b> Social networks and language: how internet slang became an integral part of youth communication .....	9
<b>Dilbar Niyazova.</b> Matn idrokida assotsiativ tafakkurning o'rni .....	
<b>Dildora Yorbulova.</b> Cho'lponning "Ergashish" hangomasi tahlili .....	
<b>Elyor Imomov.</b> Turli tillarda (o'zbek va ingliz) kasb-hunar leksikasiga oid bo'lgan atamalarning linguokulturologik tadqiqi .....	96
<b>Asliddin Ismatov.</b> "Ertak nutqining lingvomadaniy o'lchovi va uning kommunikativ strategiyasi" .....	
<b>Ra'no Fayzullayeva.</b> "Xamsa" hayratlari" – so'nmas e'tiqod ifodasi .....	9
<b>Vaziraxon Alimbekova.</b> Janubi-sharqiy andijon shevasida undovlarning qo'llanishi .....	10
<b>Qobil Egamnazarov.</b> Tilshunoslikda mavjud lingvistik tahlil metodlari haqida ayrim mulohazalar .....	1
<b>Shaxnoza Yunusova.</b> Reklama matnlarining sintaktik qurilishi .....	106

**Saodat Kambarova**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili  
 va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi  
 kafedrasida dotsenti, ped. fan. fals. dok. (PhD)*

## YOZUVCHI IJODINI SHAXSIYATIGA BOG'LAB O'RGANISH DARSLARINI TASHKIL ETISH

Tadqiqot, loyiha himoyasi yoki asarni idrok etish darslari so'z san'atining ahamiyatini tushunishga, o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati ulushini belgilashga, jamoaviy va individual harakatlarini uyg'unlashtirishga imkon beradi. Bunday darslar matn ustida ishlashning chuqurlashtirilgan varianti bo'lib, o'quvchilarning badiiy so'z ustidagi mustaqil kuzatishlarini tashkil etish, matn mazmunini tushunish, uning g'oyaviy mazmunini anglash, ya'ni badiiy asarni mustaqil baholash omili bo'lib xizmat qiladi. Metodist olim A.Zunnunov asarni idrok qilish darslarini tashkil etishda, asosan, ijodiy o'qish metodiga xos ifodali o'qish, yod olish kabi usullardan foydalanishning ahamiyatli ekanligiga urg'u qaratgan [3: 245]. Bizningcha, bunday turdagi darslarni asar muallifi shaxsiyatiga bog'lab o'rganish yozuvchining ijodiy yo'lini qayta bosib o'tish, mahorati, dunyoqarashini anglashda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asarni idrok qilish darslarining vazifasi matn bilan muloqot qilish, o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga ta'sir ko'rsatish, estetik tuyg'ularini o'stirish, taassurotlarini chuqurlashtirishdan iborat.

Adabiyotni fan va san'at turi sifatida o'qitish muammosiga doir tajriba-sinov ishlari jarayonida idrok darsi modelining xususiyatlarini aniqlash va ko'rsatish uchun bir qator monografik mavzularga, turli janrdagi asarlarga murojaat qilindi. Ayniqsa, yuqori sinflarda bunday darslar tizimi o'ziga xosdir. Idrok qilish darslarining samaradorligini tekshirish o'quvchilarda muallif shaxsiyati, badiiy asarga munosabatini shakllantirish dinamikasini aniqlashga imkon beradi. Fikrimizcha, idrok darslari metodik modellarini ishlab chiqish o'quvchilarning muayyan adib ijodiga shaxsiy munosabati evolyutsiyasi muammosini yosh rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda o'rganish ularning ijodkorligi, kommunikativ va nutqiy faoliyatini rivojlantirishga zarur shart-sharoit yaratadi.

Biografiya nafaqat yozuvchining bilimi, o'z davri namoyandasi, balki hayot yo'li, dunyoqarashi bilan ham betakror shaxs sifatidagi o'rnini tushunish funksiyasini bajaradi. Bu adabiyot fanining insonshunoslik yo'nalishiga adabiy qahramonlar va tarjimayi hol bilan tanishishni teng asosda kiritish imkonini yaratadi. Biz yozuvchi tarjimayi holiga oid idrok darslarini ta'limning yangi bilim berish va ijodiy yaratish shakliga kiritishni joiz deb bilamiz. Ularning yangiligi o'rganilayotgan materialning o'ziga xosligidadir.

Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarning badiiy adabiyot haqidagi tasavvurlari qanday o'zgarib borganligi, ularning yozuvchi shaxsiyati va ijodi haqidagi tasavvurlari, dunyoqarashlari, muloqot qilish usullari mustaqil mutolaaga tanlangan Tog'ay Murod hayoti va ijodi misolida tadqiq etildi. Dars uchun materiallar yozuvchining asarlariga bag'ishlangan so'zboshilar, turmush o'rtog'i Ma'suma Ahmedova tomonidan to'planib nashr etilgan "Men qaytib kelaman: Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida" [1], H.Karimovning "Nasr baxshisi" [2] kabi kitoblardan olindi. O'quvchilarga yozuvchining o'zlarini qiziqtirgan asarini o'qish, ulardan qaysilarini adabiyot o'quv dasturiga kiritish haqida tavsiya berishlari ham so'raladi. Buning uchun yozuvchi asarlari ro'yxati bilan tanishtirildi, kutubxona yoki internet manbalardan foydalanish yo'l-yo'riqlari ko'rsatildi.

Har bir tajriba obyektida tanlangan 9-sinf o'quvchilari uch guruhga bo'lindi. Guruhlar adib ijodiga doir har xil turdagi biografik ma'lumotlar bilan ta'minlandi. Respondentlarga quyidagicha topshiriqlar berildi:

I. Adib haqidagi tarjimayi hollarni o'rganing. Undagi ma'lumotlarni solishtiring va materiallar reytingini tuzing.

1. Javob tayyorlang: Tog'ay Murod shaxsiyati haqida taassurotlaringiz qanday? Qaysi faktlar, epizodlar sizga ko'proq ma'qul bo'ldi?

II. Yozuvchi haqida mashhur kishilar fikrlari bilan tanishning va ularga munosabat bildiring. Bunda M.Ahmedova, S.Ahmad, O.Yoqubov kabi ijodkorlar fikrlaridan foydalanish tavsiya etildi. O'qituvchining xohishiga ko'ra boshqa materiallar ham qo'shilishi mumkin.

III. Qo'shimcha didaktik materiallar bilan ishlash.

1. Savol: O'rganganlaringiz taassurotlaringizni yana qanday yangi ma'lumotlar bilan boyitdi?

IV. Fikr almashish. O'quvchilar taniqli kishilar tomonidan ijodkorga berilgan ta'riflarga munosabat bildirishdi. O'zlarining taassurotlari bilan tengdoshlarining fikrlarida qanday o'xshashlik borligini qiyoslashdi. Shu o'rinda o'quvchilarga yozuvchining uy-muzeyi, u qayerda joylashganligi va qanday eksponatlar bilan jihozlangani haqidagi savollar bilan murojaat qilindi. Topshiriqni bajarish o'quvchilarning izlanish faolligini jadallashtirishga yordam berdi va yozuvchi shaxsiyati bo'yicha anchagina foydali ma'lumotlar o'zlashtirildi.

V. Refleksiya ("Ko'zgu") orqali mashg'ulot o'quvchilarga nima berganligi, uning yutuq va kamchiliklari, o'tkazish bo'yicha maslahatlar, o'rganilgan biografiyadan taassurotlar aniqlandi:

1. Tog'ay Murod asarlarini o'qishni xohlaganmidingiz? Aynan qaysilarini?
2. O'qishdan oldingi va keyingi holatlarni taqqoslash. Nima uchun xohlagan (yoki xohlamagan) edi? Natija qanday yakunlandi? Adib shaxsi haqidagi fikrlari o'zgarishiga nima sabab bo'ldi?

VI. Uyga vazifa. Yozuvchi shaxsiyati haqidagi taassurotlar: "Men yozuvchi va shaxs Tog'ay Murodni qanday tasavvur qildim?"

So'rov jarayonida ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarning 75 % idrok darslarini adabiyot darsining eng qiziqarli shakli deb hisoblashgan. Unda berilgan materiallarning 65,5% maroqli deb tan olingan; yozuvchi haqidagi eng qiziqarli ma'lumotlar taxminan 40%ni tashkil etgan.

Quyida tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Toshkent viloyati Yangiyo'l shahridagi 1-IDUM 9-sinf o'quvchilari javoblaridan namunalar keltirildi (javoblar uslubi tahrir qilindi).

Charos Mirzayeva: "Ushbu dars menga Tog'ay Murodning kimligini tushunishga yordam berdi. Mashg'ulot oldidan men adibni qaysidir mukofot sovrindori, xizmat ko'rsatgan xodim deb o'yladim. Bularning barchasi haqiqat, lekin men uning qanday odam ekanligini asarlaridan yaxshi tushunib oldim. Shu bois ijodkorlarga nisbatan munosabatimni o'zgartirdim, chunki ularning kimligini bilmasdan turib ijodini his qilish mumkin emas ekan".

Sarvinoz Jumaqulova: "To'g'risini aytsam, agar ushbu dars bo'lmaganida, Tog'ay Murod shaxsiyati bilan yaqindan tanishmagan bo'lardim. Men avvalgi sinflarda uning tarjimai holini shunchaki o'qiganman. Lekin unchalik qiziqmagandim. Ushbu dars ko'p narsa berdi. Yozuvchi hayotidan nafaqat quruq raqamlar va faktlar, balki jiddiy lavhalarini ham o'rgandim. Bunday dars muallifning tarjimai holini darslik yoki biron bir maqolada o'qishdan ko'ra ancha qiziqroqdir".

Madina Gulmirzayeva: "Men "Oydinda yurgan odamlar" qissasini o'qidim. Unda yozuvchining xalqona qadriyat va rasm-rusumlarni yaxshi bilishi namoyon bo'lgan. Ayniqsa, qissadagi rasm-rusumlar, folklor, xalq amaliy san'ati namunalari juda qiziqarli ekan. Yana ayrim joylar, masalan, So'fi Olloyor ziyoratgohi bugungi kunda Surxon vohasida borligini internetdan izlab topdim. Bu menga o'lkamiz tarixi haqidagi noyob ma'lumotlarni o'rganishimga sabab bo'ldi. Shu bois ham asardan ayrim parchalarni, jumladan, topishmoqlar, rivoyatlar, afsonalar, qo'shiqlar aks etgan o'rinlarni dasturga kiritish zarur degan xulosaga keldim".

Idrok darslarini tashkil etishga doir adabiy materiallarini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari; qiziqish va ehtiyojlari (masalan, o'quvchilar yozuvchining xarakter xususiyatlari, shaxsiy hayoti, ota-onasi, oilasi, yaqinlari bilan munosabatlari, adabiyotdan tashqari qiziqishlari, do'stlari va ular bilan munosabatlari bo'yicha ko'proq savollar berishdi (80%)ga e'tibor qaratildi. Yozuvchi shaxs sifatida va asarlarining tarjimai holi bilan qanchalik bog'liqligi ularda qiziqish uyg'otdi (85 %);

Badiiy asarlar mazmunini o'zlashtirishda muallif shaxsiyati bilan bog'liq materiallarga urg'u qaratish ularning "muallif – asar" tizimidagi o'rnini tushunishda muhim sanaladi. Shuning uchun darsliklarda ijodkor haqidagi materiallardan butunlay voz kechish metodikaga xilof ekanligi ravshanlashdi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchida yorqin qiziqish uyg'otadigan vaziyatlarni yaratish ularning keyingi faoliyatini rag'batlantirish, mashg'ulot muhitiga kirishlariga yordam berdi. Idrok darslari yozuvchining tarjimai holi va hayotiy tajribasi haqida o'ziga xos ko'priq vazifasini o'tadi. Bu quyidagilarga e'tibor qaratishni taqozo etdi:

- 1) har bir yozuvchining "biografik kaliti"ni topish;
- 2) dars uchun material tanlashda yozuvchining ichki hayoti, shaxsiyati, iste'dodi shakllanishi, qalbining ulug'vorligi, tarix va san'atdagi o'rnini, tabiatga munosabati to'g'risida ma'lumot olish;
- 3) darsni tashkil etishda o'quvchilarning umumiy bilimlaridan tashqari, shaxsiy va hamkorlikda ishlash tajribasiga, o'zi uchun yangilik deb bilgan jihatlarni "kashf" qilishga sharoit yaratish va h.k.

Xulosa qilib aytganda, muloqot maydoni cheksizdir. Uning ichida o'quvchi har safar yangi bilimlarni o'zlashtirishi, ijodiy loyihalarini yaratishi, barchasini diskursiv amaliyotida qo'llagan holda o'zini to'liq anglashi mumkin bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan ta'lim shakllari, dars turlari va metodlarini to'g'ri tanlash badiiy-estetik va adabiy kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy mezondir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедова М. Мен қайтиб келаман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 179 б.
2. Каримов Ҳ. Наср бахшиси. Тоғай Муроднинг адабий портрети. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 96 б.
3. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 333 б.